

CHORVACHILIK SOHASINING RIVOJI (Qashqadaryo vohasi misolida)

*Ro‘ziboyev Dilshod A’zam o‘g‘li
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasи o‘qituvchisi*

Annotatsiya

Annotatsiya: mazkur maqolada Qashqadaryo vohasida chorvachilikning ahvoli, davlat majburiyatlarining bajarilishi, chorva mollari sonining ko‘payishi, shuningdek, ular uchun yem-xashak bazasining yaratilishi haqida yoritiladi. Shu bilan bir qatorda vohaning qator tumanlarida chorvachilik bo‘yicha davlat rejasining bajarilmay qolishi, sabablari, kolxozlarda faoliyat yuritayotgan chorvadorlarning chorvachilik sohasidagi sa‘y-harakatlari qisqacha bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: “Qizil sharq”, “Yangikent”, “Kaganovich”, “Kuybishev”, “Baynalmilal”, “III Baynalmilal”, “Oktabr 15 yilligi”, “Qizil qo‘sishin”.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 martdagи “Chorvachilikda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-2841-son, 2019 yil 18 martdagи “Chorvachilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish va qo’llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4243-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28 martdagи “Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5696-son farmoni, O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 20 maydagи “Yaylovlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-538-son Qonuni, 2019 yil 16 avgustdagи “Qorako‘lchilik tarmog‘ini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi¹ PQ-4420-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi PF-60-son Farmonlari viloyatda chorvachilik sohasini rivojlantirishga turtki berdi. Chorvachilik Qashqadaryo vohasida qishloq xo‘jaligining eng muhim sohalaridan biri hisoblanadi. Jumladan, SSSR Oliy soveti prezidumining 1947 yil 16 sentabrdagi chiqargan tarixiy farmoni Kitob tuman chorvadorlarining g‘ayratiga g‘ayrat qo‘shti. Ular farmondan ilhomlanib, chorva mahsulorligini oshirish uchun

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 martdagи PQ-2841-son “Chorvachilikda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora – tadbirlar to‘g‘risida”gi; 2019 yil 18 martdagи PQ-4243-son “Chorvachilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish va qo’llab – quvvatlash chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019 yil 28 martdagи “Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5696-son farmoni O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 20 maydagи “Yaylovlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-538-son Qonuni va 2019 yil 16 avgustdagи PQ-4420-son “Qorako‘lchilik tarmog‘ini kompleks rivojlantirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari // www. lex. uz.

jiddiy mehnat qildilar. Xususan, Kitob tumanining “Karl Marks” nomli kolxozda 1936-yilda 3 sigir, 23 qo‘y, 2 echki va 11 ot bo‘lgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich 1947-yilga kelib, kolxoz fermasida 50 sigir, 416 qo‘y, 170 echki va 186 otga ko‘paytirildi. Kolxoz 1947 yilda chorvachilik yuzasidan berilgan davlat rejasi oshirib bajarildi. Kolxozda qo‘ylar soni rejadagi 314 o‘rniga 416 ga yetkazildi. Bundan tashqari 130 qo‘ydan 148 qo‘zi olinib, reja 116 foizga bajarildi. Ushbu kolxozda qo‘ylarni ko‘paytirish bilan bir qatorda otlar ham ko‘paya boshladi. 1947 yilda 35 otdan 35 ta qulun olingan bo‘lib, sigirlar 177 ga ko‘paytirildi². 1947 yilga kelib Kitob tumanining Paxtaobod qishloq sovetidagi “Qizil sharq” kolxozida qorako‘lchilik katta o‘rin tutmasada, mayda chorva fermasi rivojlana boshladi. Ayniqsa, SSSR hukumatining 1945 yil 3 iyunda chiqargan chorva mahsulotlarini oshirgan kolxozchilarga qo‘shimcha haq to‘lash to‘g‘risidagi qaroridan keyin, chorvadorlar jamoat chorvachiligin rivojlantirishga astoydil kirishdilar. Ushbu qarordan so‘ng, kolxozda qo‘ylarning soni 1000 boshdan ko‘proqqa oshdi³. Xususan, qoramollar, yilqilar soni ham urush yillaridagiga nisbatan ikki baravar oshirildi. Kitob tumanining “Qizil sharq” kolxozida 1947 yilda davlatga chorva mahsulotlarini topshirish majburiyati to‘la bajariladi. Chorvadorlarning samarali mehnati natijasida kolxozda 180 bosh qo‘y, 2 bosh qoramol, 4 bosh yilqi, 40 bosh echkiga yetkazildi⁴. Kolxozning chorvadorlari SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1947 yil 29 sentabrda chiqargan Farmonidan ruhlanib, jamoat chorvachiligin rivojlanitirish uchun astoydil mehnat qiladilar. Koson tumanining Mudin qishloq sovetidagi Voroshilov nomli kolxozida 1947 yil uchun 1500 sentner yem-xashak tayyorlandi⁵. Bundan tashqari ushbu tumanning Stalin nomli kolxozida chorva mollari qishlovi uchun 7798 sentner yem-xashak jamg‘arildi. Xususan, Alachabob qishloq sovetidagi Stalin nomli kolxozda ham 5030 sentner yem-xashak qishlov uchun tayyorlab qo‘yildi. G‘uzor tumanining ko‘pchilik kolxozlari 1947 yilda davlatga chorva mahsulotlari topshirish rejalarid muddatidan oldin bajarildi. Tumanning “Yangikent” qishloq sovetidagi “Kaganovich” nomli kolxozda sariyog‘ topshirish yillik rejasi 135 foizga bajarildi. Jumladan, “Kuybishev” qishloq sovetidagi “Baynalmilal” kolxozi rejadagi 249 kilogramm sariyog‘ o‘rniga, 263 kg, “Sho‘ro” kolxozi 179 kg o‘rniga 248 kg sariyog‘ davlatga topshirildi⁶. Biroq tumanning ayrim kolxozlarida davlat reja asosida sariyog‘ topshirish orqada qoldi. “Qovchin” qishloq sovetidagi “Namuna” kolxozi 175,8 kg o‘rniga 45,5 kg, “Karl Marks” nomli kolxozda esa 204,9 kg o‘rniga 108,7 kg, “Stalin” nomli kolxoz esa 127 kg o‘rniga 56 kg sariyog‘ davlatga topshirildi⁷. Qarshi tumani Qashqadaryo viloyatining asosiy chorvador hududlaridan biri hisoblanadi. Qarshi tumani chorvadorlari 1947 yilda ancha yaxshi natijalarga erishdilar. Qarshi

²Kolxoz fermasi o‘smaqdida // Qashqadaryo haqiqati, 1947-yil, 12 oktabr, № 203 (1137).

³ Chorvachilikni yanada rivojlantiramiz // Qashqadaryo haqiqati, 1947-yil, 26 oktabr, № 213 (1147).

⁴Qashqadaryo haqiqati, 1947-yil, 26 oktabr, № 213 (1147).

⁵Qashqadaryo haqiqati, 1947-yil, 26 oktabr, № 213 (1147).

⁶ O‘sha joyda

⁷ O‘sha joyda

tumani “III Baynalmilal” nomli kolxozida qo‘ylar soni 23 000 boshga yetkazildi. 1946 yilda ushbu kolxozi davlatga 6540 dona qorako‘l terini davlatga topshirgan bo‘lsa, 1947 yilda esa 1 mln donaga yetkazildi⁸. Denov qishloq sovetidagi “Qizil O‘zbekiston” kolxozida chorva mollarining tuyog‘i o‘sish o‘rniga kamaya boshladi. “Kahlaq” qishloq sovetidagi ‘Qizil qahramon”, “Komsomol”, Beshkent qishloq sovetidagi “Stalin” nomli, Qozoq qishloq sovetidagi “Kaganovich” nomli kolxozlarda ham chorvachilik mollari soni kamayishiga, kolxozlarda qishlov uchun yetarli miqdorda yem-xashak jamg‘arilmaganligi uchun davlat rejasi bajarilmadi. Beshkent qishloq sovetidagi “Oxunboboyev⁹” nomli kolxoz chorvadorlari 1948 yil davlatga chorva mollarini topshirish bo‘yicha yangi topshiriqlar oldilar. Davlatga topshiriladigan qorako‘l terini 90 foizga oshirish majburiyatini olishdi. Qamashi qishloq sovetidagi “III Baynalmilal” kolxozining chorvadorlari 100 bosh qo‘ydan 105 boshdan qo‘zi olish va qorako‘l terilarining 80 foizini birinchi navga topshirildi. Qo‘ylarni sun’iy ko‘paytirish ishlari ham jadallik bilan olib borildi. Xususan, Qarshi shahrining Xudoyzod qishloq sovetidagi Stalin nomli kolxzoda chorva mollari, ayniqsa, qorako‘l qo‘ylar sonini ko‘paytirish sohasida anchagina ishlar amalga oshirildi. 1947 yil noyabr oyida kolxoz chorvadorlari 1943 yildagi 340 bosh qo‘yni ayni vaqtida 816 boshga yetkazildi¹⁰. “Nishon” qorako‘lchilik sovxozi 1947 yil chorva mollarining xatarsiz qishlovi uchun 40 000 sentner yem-xashak jamg‘arildi. Shu sa'y-harakatlar o‘z natijasini berdi. 1948 yilda qorako‘l qo‘ylari soni anchaga ko‘paydi. Koson tumanining Maymanoq qishloq sovetidagi “Kuybishev” nomli kolxoz chorva mollari qishloviga puxta tayyorgarlik ko‘rilib, 300 bosh ot sig‘adigan 2 ta otxona, 200 bosh sigir sig‘adigan 2 ta molxona qurildi. Stalin nomli kolxzoda ham qurilish ishlari amalga oshirilib, 3 ta molxona, 4 ta otxona, qo‘ylar uchun esa 8 ta qo‘ton barpo etildi¹¹. Qarshi tumanining Obidida qishloq sovetidagi “Oktabr 20 yilligi” kolxozida 1946 yilda chorva mollari uchun mustahkam yem-xashak bazasi yaratilmaganligi natijasida bir necha o‘nlab bosh qoramol va qo‘y-echkilar nobud bo‘ldi. “Oktabr 20 yilligi” kolxozi 1947 yil 5581 sentner beda, somon va yantoq tayyorlashi lozim edi, ammo, kolxoz 2270 sentner yem-xashak tayyorlay oldi¹². Shuningdek, Kat qishloq sovetidagi “1-May” kolxozida yem-xashak tayyorlash rejasi 1947 yil uchun 37,8 foizi bajarildi, xolos. Reja bo‘yicha bajarilishi lozim bo‘lgan 3871 sentner o‘rniga 1466 sentner yem-xashak tayyorlandi. Bunday holatlar chorva mollari uchun yem-xashak tayyorlash darajasi past bo‘lgan Yertepa qishloq sovetidagi “Yusupov” nomli, Xudoyzod qishloq sovetidagi “Kirov” nomli kolxozlarda ham uchratish mumkin. Yuqorida nomlari keltirilgan kolxozlarda 1947 yilda chorva mollariga yem-xashak tayyorlash rejasi 60 foizga bajarildi. SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1947 yil 16 sentabrdagi chiqargan

⁸Qashqadaryo haqiqati, 1947-yil, 26 oktabr, № 213 (1147).

⁹Qashqadaryo haqiqati, 1947-yil, 26 oktabr, № 213 (1147).

¹⁰Qashqadaryo haqiqati, 1947-yil, 12 noyabr № 222 (1156).

¹¹Qashqadaryo haqiqati, 1947-yil, 15 noyabr № 225 (1159).

¹²Qashqadaryo haqiqati, 1947-yil, 30 noyabr № 236 (1170).

tarixiy Farmoni natijasida Ko‘kbuloq tuman Egrisuv qishloq sovetidagi “Ittifoq” kolxozining chorvadorlari chorva mahsuldorligini oshirish sohasida katta ishlarni amalga oshirdilar. Ayni shu kolxozda 1948 yilda 36 bosh otni sun’iy ko‘paytirish ishlari muvaffaqiyatli amalga oshirildi¹³. Yilqiboqar bo‘lib ishlagan Rahmon ota 1948 yilda 29 bosh biyadan 29 bosh qulun olishga erisha oldi¹⁴. Shuningdek, kolxoz cho‘poni Eshbolta Murodov 410 bosh qo‘ydan 455 bosh qo‘zi, 90 bosh ona echkidan 115 bosh uloq olishga muvaffaq bo‘ldi¹⁵. Koson tumanida joylashgan Maymanoq qishloq sovetidagi “Stalin” nomli kolxozda Sherali ota Mirzayev 1936 yildan buyon yilqiboqar bo‘lib ishlab kelgan edi. 1936 yilda uning yilqilari soni 15 bosh bo‘lib, 1947 yilda esa ularning soni 150 boshga yetdi¹⁶. Sherli ota 125 bosh yilqidan 1948 yilda 125 bosh qulun olishga erishdi. Koson tumanining bir necha kolxozlari 1947 yil davlat chorva mahsulotlari tayyorlash majburiyatini bajarib, 1948 yil hisobiga chorva mahsulotlarini topshirdilar. Mudin qishloq sovetidagi “Stalin” nomli kolxoz davlatga 4819 kg go‘sht topshirish rejasid muddatidan oldin bajarildi. Shu qishloq sovetining “Voroshilov” nomli kolxoz 1948 yil hisobiga 2300 kg go‘sht, 30 kg sariyog‘, Koson qishloq sovetidagi “Kommunizm” kolxozi 769 kg go‘sht, Maksim Gorkiy nomli kolxoz 3491 kg go‘sht topshirildi. Koson qishloq sovetidagi kolxozlar 1947 yildagi davlatga go‘sht topshirish rejasini muddatidan ilgari bajarib, 1948 yil uchun davlatga 10910 kg go‘sht mahsuloti topshirildi¹⁷. Kitob tumanining Sevaz qishloq sovetidagi “Vladimir Ilich” nomli kolxozda chorva mollarining sonini o‘sirish, chorva mahsuldorligini oshirish sohasida ulkan ishlar amalga oshirildi. 1947 yilda ushbu kolxozda qo‘ylarning soni 1368 taga yetkazildi. Kolxozda chorva mollarining xatarsiz qishlovi uchun puxta tayyorgarlik ko‘rildi. Chorva mollari uchun 2380 sentner beda, 950 sentner yantoq va boshqa yem-xashaklar tayyorlandi¹⁸. Shu davrda Ko‘kbuloq tumanida chorvachilikni rivojlantirish davlat rejasid oshirib bajarildi. Chunonchi, yilqichilikni rivojlantirish davlat rejasid 100,5 foiz, qo‘y 100,1 foiz, qoramol 100 foiz bajarildi. Tumanda chorvachilikning yana bir turi bo‘lgan tuyachilikni rivojlantirish davlat rejasini ham 115 foizga yetkazib bajarildi. Qarshi tumani Xudoyzod qishloq sovetidagi “Oktabr 15 yilligi” kolxozida chorvachilikni rivojlantirish sohasida ancha ishlar qilindi. Qo‘ylar soni 1946 yilga nisbatan 1947 yilda 347 boshga ko‘paydi¹⁹. Kolxoz birgina qo‘ychilikni rivojlantirib qolmay qoramol, yilqichilik sohasida ham namunali ishlar qilindi. 1948 yil otlar soni 52 boshga, qoramollar soni 149 boshga yetkazildi. Kolxozda chorva mollarining bir boshini ham nobud qilmay, qishdan asrab chiqish uchun yangidan 2 ta qo‘ton, 3 ta otxona, 2 ta molxona qurib ishga tushirdi va 3 ta eski molxonani sifatli remontdan chiqarildi. Qishga yetarli qilib 7600 sentner yem-

¹³Qashqadaryo haqiqati, 1947-yil, 30 noyabr № 236 (1170).

¹⁴O‘sha joyda

¹⁵O‘sha joyda

¹⁶O‘sha joyda

¹⁷Qashqadaryo haqiqati, 1947-yil, 9 dekabr № 241 (1175).

¹⁸Qashqadaryo haqiqati, 1947-yil, 9 dekabr № 241 (1175).

¹⁹Qashqadaryo haqiqati, 1948-yil, 13 yanvar № 9 (1201).

xashak tayyorlandi²⁰. Ushbu qishloq sovetining “Oxunboboyev” nomli kolxozda ham chorva mollarini ko‘paytirish bo‘yicha ishlar amalga oshirilib, ushbu kolxozda 1947 yilda har 100 bosh ona qo‘ydan 115 bosh qo‘zi olindi. Qarshi shahridagi Kamandi qishloq sovetidagi “III – Baynalmilal” kolxozida chorva mollarini ko‘paytirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilib, ushbu kolxoz fermasida 1947 yilda 521 bosh qo‘y, qoramol va otlar yetishtirildi²¹. Ushbu kolxozning keksa, tajribali cho‘poni Said Ochilov boqimidagi qo‘ylar yaxshi parvarish qilinib, davlatga chorva mollarini topshirish bo‘yicha reja 100 foizga bajarildi. Qamashi tumanidagi Yortepa qishloq sovetidagi “Qizil chorva” kolxozida 1948 yilda 4206 bosh ona qo‘y qo‘zilatilib, 4640 bosh qo‘zi olindi²². Ushbu kolxoz tomonidan 1948 yil davlatga 576 dona qorako‘l terisi topshirildi. Beshkent tumanidagi Qozoq qishloq sovetidagi “Qizil qo‘shin” kolxozida qo‘zilatish ishlari juda sust olib borilib, 3272 bosh qo‘ydan 856 bosh qo‘zi olindi. Bundan tashqari ushbu qishloq sovetining “Kaganovich” nomli kolxozning 2563 bosh qo‘ydan 516 bosh qo‘zi olindi²³. 1948 yilda qo‘ylarni sun’iy ko‘paytirish bo‘yicha Qarshi shahridagi Kat qishloq sovetidagi “Taraqqiyot” kolxozida davlat belgilagan reja 100 foizga bajarildi. Beshkent tumanidagi “Qizil alanga” kolxozida 1948 yilda 393 bosh ona qo‘y qo‘ziladi²⁴. Qarshi tumanidagi Yertepa qishloq sovetidagi Yusupov nomli kolxozda qo‘ylardan olinadigan qo‘zilarning nobud bo‘lishi natijasida 700 bosh qo‘ydan 330 bosh qo‘zi topshirildi²⁵. Qarshi shahridagi Xudoyzod qishloq sovetidagi Stalin nomli kolxozda chorva mollari uchun yem-xashak tayyorlash rejasi bajarilib, chorva mollari uchun 250 sentner beda tayyorlandi²⁶. Bu kolxozdagi chorva mollarining qishlovini xavfsiz o‘tishini ta’miladi. Qarshi tumani Xudoyzod qishloq sovetidagi “Oktabr 15 yilligi” kolxozida chorvachilikni rivojlantirish bo‘yicha ancha ishlar qilindi. Birgina qo‘ylar soni 1946 yilga nisbatan 1947 yilga kelib 347 boshga ko‘paydi²⁷. Ushbu kolxoz qo‘ychilikni rivojlantirib qolmay qoramol, yilqichilik sohasida ham namunali ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 1948 yilda otlar soni 52 boshga, qoramollar soni 149 boshga yetkazildi²⁸. Qarshi tumanining “Oxunboboyev” nomli kolxozida ham chorva mollarini soni va sifat jihatidan o‘stirish uchun keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Ushbu kolxozda 1947 yilda 100 bosh ona qo‘ydan 115 ta qo‘zi olindi²⁹. Ushbu kolxoz chorvadorlarining fidokorona mehnatlari natijasida qoramol, ot va tuyachilik davlat rejalarini oshirib bajarildi. Qarshi sharidagi Kamandi qishloq sovetidagi “III – Baynalmilal” kolxozida chorva mollarining qishlovini yaxshi va namunali o‘tkazish uchun puxta tayyorgarlik ko‘rilib, kolxoz fermasida 521 bosh

²⁰Qashqadaryo haqiqati, 1948-yil, 13 yanvar.№ 9 (1201).

²¹Qashqadaryo haqiqati, 1948-yil, 18 yanvar.№ 13 (1205).

²²Qashqadaryo haqiqati, 1948-yil, 26 mart.№ 61 (1253).

²³O‘sha joyda

²⁴O‘sha joyda

²⁵O‘sha joyda

²⁶Qashqadaryo haqiqati, 1948-yil, 13 iyun.№ 117(1309).

²⁷Qashqadaryo haqiqati, 1948-yil, 13 yanvar .№ 9(1201).

²⁸O‘sha joyda

²⁹O‘sha joyda

qo‘y, qoramol, va otlar uchun sifatli va issiq molxonalar qurilib topshirildi³⁰. Qamashi tumani Yertepa qishloq sovetidagi “Qizil chorva” kolxozida 1948 yilda 4206 bosh qo‘ydan 4640 bosh qo‘zi olindi³¹. Bundan tashqari ushbu kolxoz 1948 yil davlatga 576 dona qorako‘l terisi topshirildi³². Chorva mollarini ko‘paytirish bo‘yicha ishlar ba’zi hududlarda orqada qoldi. Xususan, Beshkent tumani Qozoq qishloq sovetidagi “Qizil qo‘shin” kolxozida chorva mollari ko‘paytirish qoniqarsiz olib borildi. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, qishlov uchun yetarli miqdorda yem-xashakni jamg‘arilishi natijasida kolxozlarda jamoat chorvachilagini rivojlantirish imkonini berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 martdagi PQ-2841-son “Chorvachilikda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish bo‘yicha qo’shimcha chora – tadbirlar to‘g’risida”gi Farmon.
2. Kolxozi fermasi o‘smaqda // Qashqadaryo haqiqati, 1947-yil, 12 oktabr, № 203 (1137).
3. Chorvachilikni yanada rivojlantiramiz // Qashqadaryo haqiqati, 1947-yil, 26 oktabr, № 213 (1147).
4. Qashqadaryo haqiqati, 1947-yil, 26 oktabr, № 213 (1147).
5. Qashqadaryo haqiqati, 1947-yil, 12 noyabr, № 222 (1156).
6. Qashqadaryo haqiqati, 1947-yil, 15 noyabr, № 225 (1159).
7. Qashqadaryo haqiqati, 1947-yil, 30 noyabr, № 236 (1170).
8. Qashqadaryo haqiqati, 1947-yil, 9 dekabr. № 241 (1175).
9. Qashqadaryo haqiqati, 1948-yil, 13 yanvar. № 9 (1201).
10. Qashqadaryo haqiqati, 1948-yil, 18 yanvar. № 13 (1205).
11. Qashqadaryo haqiqati, 1948-yil, 26 mart. № 61 (1253).
12. Qashqadaryo haqiqati, 1948-yil, 13 iyun. № 117(1309).
13. Qashqadaryo haqiqati, 1948-yil, 18 yanvar .№ 13(1205).
14. Qashqadaryo haqiqati, 1948-yil, 26 mart . № 61(1253).

³⁰Qashqadaryo haqiqati, 1948-yil, 18 yanvar .№ 13(1205).

³¹Qashqadaryo haqiqati, 1948-yil, 26 mart .№ 61(1253).

³²O‘sha joyda